

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| O.R.Mehmonova | |
| Dialogik nutq va uning birliklari..... | 258 |
| N.Y.Ortiqova | |
| Tovushga taqlid so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari (Anvar Obidjon asarlari misolida)..... | 262 |
| F.S.Karimova | |
| Fanlararo yondashuv bilingvismni o'rganish metodologiyasi | 268 |
| N.M.Karimova | |
| Prose in english and russian literature | 273 |
| R.X.Xayitova | |
| Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan nostalgic leksik birliklarning tahlili..... | 278 |
| S.A.Toshmatova | |
| Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida metaforaning qo'llanishi | 283 |
| D.N.Abduvaxabova | |
| Kompyuter lingvistikasida emotiv so'zlarni aniqlash va ularning tarjimasi..... | 287 |
| Г.А.Воҳидова | |
| Этимологияя баъзе калимаҳо дар "Фиёс-ул-лугот"-и Муҳаммад Фиёсиддин..... | 290 |
| Л.Т.Галимуллина, Ш.И.Иброхимова | |
| Исследования влияния языковых контактов на тюркские языки: история и классификация | 296 |
| Н.К.Аббасова, Ш.АТожибоева | |
| Роль медиа в образовании..... | 303 |
| D.G'.Gafurova | |
| Zamonaviy hikoyalarda peyzaj tasviri..... | 307 |
| Z.Akbarova, Z.M.Sobirova | |
| O'qish tezligi va matnni tushunish: neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan..... | 311 |
| Z.A.Akbarova, D.T.Ziyoidinova | |
| Afaziya turlari tahliliiga neyropsixolingvistik yondashuv..... | 315 |



UO'K: 159.922

FANLARARO YONDASHUV BILINGVIZMNI O'RGANISH METODOLOGIYASI**AN INTERDISCIPLINARY APPROACH METHODOLOGY FOR THE STUDY OF
BILINGUISM****МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ДВУЯЗЫЧИЯ****Karimova Feruza Salimovna** 

Farg'ona politexnika institute, O'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bilingvismni o'rganish metodologiyasining fanlararo yondashuvini tahlil qiladi. O'zbekistonda zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar, internet tarmoqlarining rivojlanishi, shuningdek, xalqaro aloqalar tilshunoslik sohasida lingvistik muloqotning ahamiyatini oshiradi. Maqola ikki tillilik hodisasining tarixiy rivojlanishiga e'tibor qaratadi va bu fenomenning psixolingvistika, tarixiy tilshunoslik va didaktika sohalaridagi uslubiy asoslarini ko'rib chiqadi. Bilingvism 19-asrda ilmiy jamoatchilik tomonidan faol o'rganilib, 20-asrda esa keng tahliligi bazaga ega bo'lib, ta'lif va amaliy tilshunoslikda qo'llanilmoqda. Ushbu maqola bilingvizmnning ilmiy o'rganilishining asosiy yo'nalishlari va metodologiyalarini, shuningdek, uning ta'limda qo'llanilishi haqida fikr yuritadi.

Abstract

This article analyzes the interdisciplinary approach to studying bilingualism. It emphasizes the growing importance of linguistic interaction in Uzbekistan, driven by the rapid development of science and technology, the integration of the internet into daily life, and the country's increasing political and cultural ties with other nations. The article traces the historical development of bilingualism, exploring its emergence in ancient migrations, trade, and invasions, and the subsequent academic attention it received starting in the 19th century. The paper examines the methodological foundations laid in the study of bilingualism, particularly with psycholinguistics, historical linguistics, and didactics. The research highlights how bilingualism has evolved into a significant field within linguistics and education.

Аннотация

Эта статья анализирует междисциплинарный подход к изучению билингвизма. Особое внимание уделяется расшущему значению лингвистического общения в Узбекистане, что связано с быстрым развитием науки и технологий, внедрением интернета в повседневную жизнь и увеличением политических и культурных связей страны с другими государствами. В статье рассматривается историческое развитие билингвизма, начиная с его корней в древних миграциях, торговле и завоеваниях, а также научного внимания, которое этому феномену уделяли с XIX века. Работа анализирует методологические основы, заложенные в изучении билингвизма, в частности в области психолингвистики, исторической лингвистики и дидактики. Исследование показывает, как билингвизм стал важной областью в лингвистике и образовании.

Kalit so'zlar: bilingvism, fanlararo yondashuv, tilshunoslik, internet tarmoqlari, ta'lif metodologiyasi, psixolingvistika, ikkitillilik.

Key words: bilingualism, interdisciplinary approach, linguistics, internet networks, educational methodology, psycholinguistics, bilingualism.

Ключевые слова: билингвизм, междисциплинарный подход, лингвистика, интернет-сети, методология образования, психолингвистика, двуязычие.

KIRISH

Yurtimizda jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan va texnika, hayotimizga kirib kelgan internet tarmoqlari va O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari bilan madaniy va siyosiy jihatdan keng ko'lamli olib borayotgan aloqlari zamirida lingvistik muloqot masalalari muhim o'rinn tutadi. Bugungi kunga kelib ta'lif sohasida yaratilgan keng imkoniyatlardan kelib chiqqan holda talabalarning chet davlatlarda tahsil olishi yoki davom ettirishi hollari ko'p kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida chet tillariga bo'lgan talab va qiziqishni tobora ortib borishiga sabab bo'lmoxda. Ikki tillilikning ildizlari hodisa sifatida uzoq o'tmishga — migratsiya, savdo va istilo jarayonida tillarning o'zaro ta'siri bo'lgan qadimgi dunyoga borib taqaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

TILSHUNOSLIK

Bilingvizm hodisasi XIX asrdan boshlab faol o'rganilib kelinmoqda. Bu haqidagi dastlabki ma'lumotlarni V.Gumboldning "Tilshunoslikka oid tanlangan asarlar" va "Tilning tabiatini va xalqning tabiatini", J.Piajening "Insholar va ekstraktlardagi psixolingvistika" asarlarida uchratishimiz mumkin [11,232-248]. Dastlab qiyosiy tarixiy tilshunoslik doirasida olib borilgan ushbu hodisani o'rganishni F.de Sossyur, A.I.Bouden de Kurtene, V.A.Bogoroditskiy, keyinchalik esa A.A.Potebnya "Estetika va poetika" asarida asta-sekin, bilan turli xil psixologik va lingvistik nazariyalarning asosiy oqimida o'z o'rnnini topa boshlagan. Umuman olganda, 20-asrda qo'yilgan ikki tillilikni o'rganishning uslubiy asoslari ikki tillilik muammolari uchun keng ko'lamli tahliliy bazani shakllantirishga muvaffaq bo'ldi, bu esa uni amaliy o'rganish va didaktik maqsadlarda qo'llashga kirishish imkonini berdi. Masalan: E.M.Vereshchaginning "Til va madaniyat" va "Ikki tillilikning psixologik va uslubiy xususiyatlari", G.M.Vishnevskayaning "Ikki tillilik va uning jihatlari", A.E.Karlinskiyning "Tilning o'zaro ta'siri nazariysi asoslari" V.Yu.Rosenzweigning "Til aloqalar: Tilshunoslik muammolari" va boshqalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. "Ikki tillilik va ko'p tillilik masalalari asosan tilshunoslik tomonidan ko'rib chiqiladi, chunki ikki tillilik til aloqasiga asoslanadi", shunga qaramay, ikki tillilik ko'p o'chovli hodisa sifatida fanlararo yondashuvni ham o'z ichiga oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ikki tillilik hodisalari va bilingylarning lingvistik ongini psixolingvistika sotsiolingvistika, neyrolingvistika va lingvokultorologiya fanlari o'rganadi. Bundan tashqari, "Ikki tillilikda lingvistik jihat psixologik, psixologik bilan pedagogik, adabiy- badiiy jihat tilshunoslik bilan chambarchas bog'liqdir" [18,70]. Sotsiologiyada ikki tillilikni jamiyatdagi ikki tilli shaxsnинг xulq-atvori muammolari bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Psixolog, psixolinguist va sotsiologlar ham ko'p tillilikning ayrim jihatlarini o'rganadilar: masalan, psixolingvistikada ikki tillilik nutq va matn mexanizmlari o'ttasidagi bog'liqlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi, shu bilan birga insonning o'rganish va o'zlashtirish qobiliyatiga katta e'tibor beriladi. Bu haqidagi ma'lumotlarni Bagana, Vigel asarlarida uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari bilingvizm muammolarini ko'pincha psixologik jihatdan o'rganigan bo'lib, xususan, ikki tillilik shakllanishining psixologik shart-sharoitlari, chet tilini o'qitish usullarini ikki tillilik turi bilan bog'liq holda tanlashni asoslash zarurligi haqida ma'lumotlar berilgan asarlar ham mavjud. Bularga quydigilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Nikulicheva, Karabulatova, Polivara, Rivlina, Chirsheva, Abutalebi, Green, Beyker, Bialystok, Melton, Karlson, Rodriguez-Fornells, xususan, ikki tillilik shakllanishining psixologik shart-sharoitlari, chet tilini o'qitish usullarini ikki tillilik turi bilan bog'liq holda tanlashni asoslash zarurligi haqida ma'lumotlar berilgan usullarini ikki tillilik turi bilan bog'liq holda tanlashni asoslash zarurligi haqida ma'lumotlar berilgan. Ona tilining chet tili o'rganishdagi ijobiy va salbiy ta'siri ko'rib chiqilgan. Andreyevaning fikriga ko'ra "Ikki tilli kishi o'z ona va chet tillarida bitta yagona idrok tizimiga va ikkita alohida nutq ishlab chiqarish tizimiga ega degan taxmin mavjud" [34-38]. Bu fikrga zid ravishda A.A.Zalevskaya shunday deydi: "So'zdan tasvirga kodlar va kod o'tishlarini tashkil qilishni aks ettiruvchi so'z ma'nosining interfeys nazariyasini ishlab chiqib, ikki tilli odam bir vaqtning o'zida ikkita aqliy leksikaga ega, ularning har biri bitta til bilan bog'liq degan xulosaga keladi" [19,14]. E.Yu.Myagkovaning qarashlari yuqoridagi ikki fikrdan ancha farq qiladi. "Ikki tilda ma'lum bir tillararo ongning shakllanishi haqida gapiradi. U tilning tuzilishi va ishlash qoidalari haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi, bu matn tuzish va izohlashga yordam beradi".

R.T.Bellning so'zlariga ko'ra, "Ikki tillilikni noyob va mustaqil kommunikativ tizim deb hisoblash mumkin". Isayev, Smolya, Angermeyev, Hornberger, Knickerbocker, Altarribalar ikki tillilikning sotsiolingvistik jihatlari ustida ish olib borishgan. Ularning ilmiy tadqiqot ishlari asosan ikki tillilik sharoitida qo'llaniladigan har bir tilning vazifalari va ko'lamenti o'rganishga bag'ishlangan. Sotsiolingvistlarni ikki tillilikning kasbiy-professional guruuhlar o'ttasida tarqalishi, jamiyat hayotining turli jabhalarida tillardan foydalanish muammolari, ekstralinguistik omillarning ikki tillilikka ta'siri, ikki tillilik kanallarining shakllanishi, milliy va xalqaro o'zaro bog'liqlik masalalari qiziqtiradi. Pedagogika fani ikki tillilikni faol va passiv tilni bilish muammolari, shuningdek, ikki tilli muhitda chet tilini o'rgatish jarayoni bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Bularga Moore, Evnitskaya, Ramos-de Robles, Ovando Combs, Pinterlarn misol qilib keltirishimiz mumkun. Adabiyotda ham ikki tillilikning badiiy nuqtayi nazaridan qo'llanilishi ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Heredia, Altarriba, Cieslicka, Titonelar asarlari bunga misol bo'lishi mumkin. Bunda nafaqat ikki tilli yozuvchilar

qalamiga mansub adabiy asarlarni tahlil qilish va bunday adabiyotni ikki tilli o'quvchi tomonidan idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari, ijobi va salbiy tomonlari, qolaversa, ikki tilli personajlarning nutqiy xususiyatlarga ham katta e'tibor beriladi.

Turli xil fan sohalari vakillarining ikki tillilikka bo'lgan qiziqishi va bu masalaning nazariy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadigan tadqiqotlar har xil sabablarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin, ularning asosiyлari globalashuv jarayonlari bo'lib, u o'tgan davrdan beri sezilarli darajada tezlashgan. 20-asrning o'talarida zamonaviy dunyoda ikki tilli (Malta, Kanada, Kipr, Sudan va boshqalar) va ko'p tilli davlatlar (Rossiya, Belgiya, Shveytsariya, Janubiy Afrika va boshqalar) mavjud bo'lib, bu davlatlar aholisining aksariyati ikki yoki undan ortiq tilni biladi. Shu bilan birga, dunyoda hech bo'limganda bitta Yevropa tilini biladigan insonlar ko'payib bormoqda, shuning uchun bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda chet tillarini o'rganish muammolariga tobora ko'proq e'tibor qaratilayotganini tushunish mumkin.

"Bilingvizm" so'zi lotin tilidan olingen bo'lib, "bi"-ikki va "lingua"- til ya'ni "ikki tilli" yoki "ikki tilda" degan ma'nolarni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, "bilingvizm" tushunchasi, insonning ikkita tilda (til ko'nikmalariga muvofiq) o'rganish, tushunish va ishlatalish qobiliyatiga ega bo'lgan holati hisoblanadi. Bilingvizm tushunchasi, odamlar orasida tillarni o'rganish va ularni o'zlashtirishda kognitiv va kommunikativ muhitni o'rganishdir.

Bilingvizm, bir kishining ikki tilli bo'lishi yoki ikki til orasida samarali tarzda aloqalar o'rnatishi demakdir. Bu, bir necha tillar o'rganish jarayonida faol ravishda ikki tilni ishlatalishi, bolalik davrida bir nechta tillarni tabiiy ravishda o'rganishi yoki ona tilini egallagandan so'ng sun'iy ravishda o'zlashtirgan kabi turli ko'rinishlarda paydo bo'ladi. Bilingvizm, madaniy tushunchalarini o'stirishi, kasbiy imkoniyatlarni kengaytirishi va intellektual o'zgaruvchanlikni rivojlantirishga ham juda katta yordam berishi mumkin. Agar biz ikki tillilikni chet tilining lingvomadaniy kodini o'zlashtirish jarayoni deb tushunsak, u holda chet tilini o'rganuvchi har qanday shaxsni sun'iy ikki tilli deb atash mumkin. Agar ikki tillilik bu jarayonning natijasi sifatida qaralsa, unda bu hodisani tildan foydalanish qobiliyati desak bo'ladi. Ona tili bilan bir qatorcha chet tilini bilgan inson "bilingv" deyiladi. Bilingvlar odatda o'z mamlakatlarining tili bilan birga boshqa millat tilini ham bilib, o'z fikr-mulohazalarni ifoda qilish yoki ma'lumotlarni amalda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

X.Z.Bagirov fikriga ko'ra, til aloqalari muammolariga bag'ishlangan lingvistik adabiyotlarda "bilingvizm" va "ko'p tillilik" atamalarining yagona ta'rifi haligacha mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda "ikkinci tilda" "so'zlashuvchi" yoki o'zlashtirgan shaxsni bildiruvchi bir nechta atamalarni uchratish mumkin; Zalevskaya "ikki tilli", "ikki tilli individual", "ikkilamchi lingvistik shaxs", "madaniyatlararo muloqot sub'ekti", "muloqotning ikki madaniyati sub'ekti" kabi atamalarni qo'llagan". Bu asosan ikkinchi (xorijiy) tilni o'zlashtirish jarayoniga qarashlarning xilma-xilligi bilan belgilanadi. Bilingv- bu ikki yoki undan ortiq til tizimlarining tashuvchisi bo'lgan shaxs. Shunday qilib, alohida odamlar va butun xalqlar, masalan, Hindiston yoki Shveytsariya aholisi ikki yoki ko'p tilli xalqlar sirasiga kiradi.

Ba'zi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, ikki tillilik ma'lum bir muloqot sharoitida so'zlovchi bir til kodidan ikkinchisiga o'tganda — bu ikki milliy til, adabiy til va sheva yoki millatlararo tillar haqida gap bo'lishidan qat'i nazar, sodir bo'ladi. "Ikki tillilik" atamasi shaxs ongida ikki tilning yonma-yon mavjudligini anglatadi, bu erda nafaqat tillarning o'zları, balki til madaniyatlarining o'zaro ta'siri jarayonlari sodir bo'ladi". Shu bilan birga, "ba'zida chet tilini o'rganuvchi talaba tilni shu qadar yaxshi o'zlashtiradi, uni bu tilda so'zlashuvchi til egasidan farqlab bo'lmaydi. Bu ba'zi hollarda balog'at yoshida kuzatiladi, lekin ko'pincha – bolalikda ona tilini o'rganish jarayonida ikkinchi tilni ham o'zlashtirganda bunday hodisa yuz beradi. Bunday hollarda ona tilini yo'qotmagan holda chet tilini mukammal bilishda ikki tilni bir xil bilishdan iborat bo'lgan ikki tillilik paydo bo'ladi.

Vereshagin ikki tillilik — bu bir kishining yoki butun xalqning ikki tilda muloqot qilish qobiliyati: ikki tilli kishi ikkita aloqa tizimining tashuvchisiga aylanadi degan fikrni ilgari suradi. Biz shunga o'xshash ta'rifni L.V.Shcherba asarida uchratishimiz mumkin. U ikki tillilik deganda aholi guruuhlarining ikki tilda muloqot qilish qibiliyatini nazarda tutgan. Shcherba ning ta'rifica oilada inson bir tildan, jamiyatda esa boshqa tildan foydalanishini anglatadi. Rozensveyg ham yuqoridagi fikrlarga yaqin holatda fikrini bayon etgan. U ikki tillilikni nafaqat ikki tilga ega bo'lish, balki muloqot sharoitlariga qarab ular o'rtasida tez-tez almashish sifatida ham ta'riflagan. Shuningdek, ikki tillilik ikki tilni muqobil ravishda ishlatalish amaliyoti ekanligini Vaynrayx o'z asarlarida tilga olgan. Buning natijasida, hamda boshqa lingvistik va ekstralingvistik omillarning ta'siri natijasiga ko'ra, ikki tilli

TILSHUNOSLIK

shaxsning ongida uning lingvistik shaxsi va lingvistik ongini o'zgartiradigan jarayonlar sodir bo'ladi va bu jarayonlarning ba'zilari bilvosita davom etadi.

Ma'lumki, tabiiy va ta'limiy ikki tillilik talabaning ikkinchi (xorijiy) tilni o'zlashtirishi shartlar yig'indisi bilan belgilanadi. o'rganish samaradorligi ob'yektiv (masalan, yosh) va sub'yektiv sabablarga (masalan, individual til o'rganish qobiliyatiga) bog'liq. Chet tilini o'zlashtirish tizimli (ma'lum ketma-ketlik asosida o'rganish) va tizimsiz (ma'lum ketma-ketlikka asoslanmagan, sodir bo'lgan jarayondan kelib chiqib o'rganish), hamda tabiiy (o'rganilayotgan chet tili muhitiga tushib qolish hollarida) va sun'iy (o'qituvchi tomonidan) aloqa amaliyotlari bilan sodir bo'ladi.

Sun'iy ikki tillilik Dotsenko, Leshchenko, Efieva, Mirlud, Maksimova, Birdsong, Kroll, Ma kabi olimlarning diqqat markazida bo'lgan, ammo bu jarayonni o'rganishda etarli miqdordagi uslubiy va metodologik muammolar mavjud. Masalan, Abramova, Shishmolina, Lovtsevich, Danilova, Richards asarlarida ikki tillilarning nutqidagi xatolarni tahlil va talqin qilish yoki "xato" tushunchasining holatlarini ko'rshimiz mumkin.

O'zbek tadqiqotchi olimlaridan Abdurauf Fitrat, E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, F.Abdullaev, U.Tursunov, V.V.Reshetova, M.T.Zokirov, M.M.Mirzayev, K.Yusupov, K.Rahmonberdiyev, N.G'ułomova, X.G'ułomovlar bilingvizm va monolingism hodisalari, xususan, til interferansiyasi xaqida o'zlarining tadqiqot ishlarida qimmatli fikr mulohazalarini berib o'tishgan.

Sun'iy ikki tillilik – bu ikkita lingvomadaniy kodni o'zlashtirish qobiliyatidir, ulardan biri tabiiy sharoitda tug'ilgandan beri o'rganilgan o'z ona tili bo'lsa, ikkinchisi maxsus ta'lim sharoitida o'rganiladi, buning natijasida ikki tilli shaxs ikki til kodiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, chet til lingvomadaniyatiga kirish jarayoni inson lingvistik ongining sirt qatlamiga ta'sir qilibgina qolmay, balki uning kommunikativ shaxsining shakllanishiga ham majburiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir jarayonida nafaqat chet tilining leksik-grammatik va fonematik tizimini o'zlashtirish, balki individual tushuncha sohasida ham o'zgarish sodir bo'ladi, ikki tilli shaxsning nutq tafakkurida sifat jihatidan yangi xususiyatlar shakllanadi.

Til shaxsi Y.N.Karaulov va ikkinchi darajali lingvistik shaxs I.I.Xaleeva kontseptsiyasi asosida o'quv ikki tillilagini shakllantirish muammosi muhokama qilinadi. Lingvistik shaxsning tarkibiy-lingvistik (assotsiativ-semantik), lingvo-kognitiv va motivatsion darajalarini ajratib ko'rsatadi, ular orasida organik munosabatni sezish oson. Birinchi holat tilni bilish darajasini aks ettiradi, ikkinchisi til shaxsning olam manzarasini belgilaydi, uchinchisi uning rivojlanishi, xatti-harakatlari, matn yaratishni boshqaradigan motiv va maqsadlardir.

Ushbu modelga asoslanib, Xaleeva ikki xil ijtimoiy-madaniy jamoalar o'lchovlارida bo'lgan, ikki xil til jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunadigan ikkinchi darajali til shaxsi haqida yozadi. Psixolingvistikada ikki tillilik (ta'lim bilingvizmi) shakllanish jarayonini tushunish nutqiy faoliyat nazariyasiga asoslanadi va "mahsuldor ikki tillilik" deb nomlanhgan tushunchaga muvofiq keladi. Bu yondashuv birinchi marta A.A.Leontiyev tomonidan tilga olingen.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bunday yondashuvda o'rganishning operativ birligi maxsus tuzilishga ega bo'lgan nutq harakati hisoblanadi. A.A.Leontiev chet tilidagi nutq hamda ona tilidagi nutq o'rtasidagi asosiy farqni ko'rsatadi. Birinchisi, fikrni ifodalash uchun turli tillarda so'zlashuvchilar nutqiy muloqot maqsadini turlicha tahlil qiladilar. Ikkinchisi — so'zning nutqiy harakati, ya'ni, bir xil mazmundagi va bir xil yo'nalishdagi gapni qurish uchun so'zlovchi bajarishi kerak bo'lgan nutq harakatidir. Bunday sharoitda til tajribani ifodalash vositasi bo'lib, sun'iy ikki tilli nutq mahoratining shakllanganligi ko'rsatkichidir. Chet tilini o'zlashtirish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda o'rganuvchi, avvalo, o'z ona tilini etarli darajada o'zlashtirgan bo'lishi talab qilinadi. Ilyasova ham o'z asarida bu fikrga alohida to'xtalib o'tib shunday deydi: "Ikki tillilikning barcha bosqichlarida vujudga kelgan "o'rta til" yoki "interlanguage" (inglizcha interlanguage) tushunchasi ushbu tildagi ko'nikma va ko'nikmalari mikrotizimlari" to'plamini anglatadi.

Biz sun'iy (ta'limiy) ikki tillilik deganda, insonning ikkita til kodidan foydalanish qobiliyati paydo bo'lgan yoki shakllangan qobiliyatini tushunamiz, ulardan biri tabiiy til muhitidan tashqarida o'qituvchi nazorati ostida maxsus ta'lim sharoitida o'zlashtiriladi.

Ikki tilli shaxsni shakllantirish jarayonida tillararo aralashuv aniq namoyon bo'ladi. Uning ta'siri til tizimining barcha darajalarida (fonetik, grammatic va leksik) mustahkamlangan va xususan, o'rganilayotgan va mahalliy so'zning tovush yoki grafik shakli o'rtasida ikki tilli o'xshashlikni

o'rnatishda ifodalanadi. Umuman, sun'iy ikki tillilik muammolarining ko'lami va tadqiqot predmetini aniqlashtirish zarurati tufayli mакtab ta'limi sharoitida chet (ingliz) tilini o'rganayotgan rus tilida yoki ona tilida so'zlashuvchilar sun'iy ikki tilli deb hisoblanadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абрамова И. Е., Шишмолова Е. П. Опыт организаций контроля качества обучения иностранным языкам / И. Е. Абрамова, Е. П. Шишмолова // Высшее образование в России. — 2015. — № 6. — С. 144-149.
2. Abutalebi, J. & Green, D. Bilingual language production: The neurocognition of language representation and control // Journal of Neurolinguistics. — 2007. — Vol. 20, № 3. P. 242-275.
3. Андреева С.В. // Ученые записки ЗабГГПУ. Филология, история, востоковедение. — 2009. № 3. — С. 34-38.
4. Багироков Х. З. Билингвизм: теоретические и прикладные аспекты. На материале адыгейского и русского языков: дис. на соиск. учен. степ. д-ра филол. наук / Х. З. Багироков. — Краснодар, 2005.
5. Блумфильд Л. Язык / Л. Блумфильд; пер. с англ. Е. С. Кубряковой, В. П. Мурат; под ред. М. М. Гухман. — М.: Прогресс, 1968.
6. Боуден Избранные труды по общему языкоznанию 1963.
7. Вагана, Жером. Единство в многообразии (путь развития английского и немецкого языков): монография / Ж. Вагана, Е. В. Бондаренко, И. А. Федорова. — Москва: ИНФРА-М, 2012. — 260 с.
8. Вайнрайх У. Языковые контакты: Состояние и пробл. исслед. / У. Вайнрайх; пер. с англ. Ю. А. Жлуктенко. — Киев: Вища школа, 197.
9. Верещагин, Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (Билингвизма). — Москва: Директ-Медиа, 2014. — 162 с.
10. Верещагин, Евгений Михайлович. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании рус. яз. как иностранного; Метод. руководство 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Рус.яз.1990.
11. Вильгельм фон Гумбольдт//Избранные труды по языкоznанию 1984; Язык и философия культуры 1985; Пиаже Ж. Психология интеллекта / Ж. Пиаже // Психолингвистика в очерках и извлечениях / Под общ. ред. В. К. Радзиховской. — М., 2003. — С. 232-248.
12. Гуломов Х. O'zbek-tojik tillari aloqalari. Т., 1983.
13. Гулямова Н.Г. O'zbek tilidagi ruscha leksik o'zlashuvlar. Т., 1985 yil.
14. Доценко Т. И., Лещенко Ю. Е. Становление смешанного и иноязычного сублексиконов в ментальном лексиконе билингва / Т. И. Доценко, Ю. Е. Лещенко // Когнитивные исследования языка. — 2014. — № 18.- С. 516-519.
15. Исаев Д. В. Влияние социолингвистической мотивации на развитие языковой ситуации на примере Канады / Д. В. Исаев // Современные исследования социальных проблем. — 2011. — Т. 5. № 1. — С. 80-82.
16. Карлинский, Аврам Ефремович; Основы теории взаимодействия языков АН КазССР, Ин-т языкоznания. — Алма-Ата. Гылым, 1990.
17. Караполов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. / Ю. Н. Караполов. — М.: Наука, 1987.
18. Михайлов М. М. Двуязычие в современном мире / М. М. Михайлов. — Чебоксары: Изд-во Чуваш. гос. ун-та, 1988. — 70 с.
19. Залевская А. А. Вопросы теории овладения вторым языком в психолингвистическом аспекте / А. А. Залевская. — Тверь: Изд-во ТГУ, 1996, Значение слова при двуязычии // Проблемы изучения билингвизма: книга для чтения. — СПб, 2014. — 14 с.